ABU YUSUF – BUYUK FAQIH

АБУ ЙУСУФ – ВЕЛИКИЙ УЧЁНЫЙ-ФАКИХ

ABU YUSUF – THE GREAT SCIENTIST OF JURISPRUDENCE

Dr ABDUQAHHOR A. RAXMONOV
Termiz branch of the Tashkent Medical Academy
Deputy director, doctor of philosophy (PhD), associate professor,
64, I. Karimov, Termiz, 132000, Uzbekistan.
Email: rahmonov_a.a@mail.ru

DOI: 10.47980/IIAU/2024/2/6

Annotatsiya. *Abu Yusuf VIII asrning so'nggi choragida yashagan islom olamidagi eng muhim shaxslaridan biridir. U islom ilm-fani ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan mujtahid olim sifatida fiqh ilmi maktablaridan biri bo'lgan hanafiylik mazhabining nazariy asoslarining shakllanishida beqiyos o'ringa ega.*

Ushbu maqolada Abu Yusuf yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy muhit, ilmiy-ma'naviy holat, uning tavalludi va nasl-nasabi, yoshligi, hayoti-faoliyati va ilmiy merosi, kimlardan qanday talim olganligi, shogirdlari, qozilik davri va ayrim fiqhiy qarashlari tadqiq etilgan.

Abu Yusuf hanafiylik mazhabida Abu Hanifadan keyingi hurmatga sazovor shaxs bo'lgan va mazhabning usulini belgilovchi juda muhim faqihdir. Afsuski, Abbosiylar davlatida bosh qozi bo'lib ishlagan, ayni paytda mazhab uslubini bevosita tatbiq etgan va uni qo'llashning ilk namunalarini ko'rsatgan Abu Yusuf haqida mamlakatimizda ko'p tadqiqotlar olib borilmaganini ko'rishimiz mumkin.

Yurtimiz musulmonlarining aksariyati hanafiy mazhabiga mansub ekanini hisobga olsak, hanafiy mazhabini keng targ'ib qilgan imom Abu Yusufning ilmiy merosi va uning fiqh ilmini chuqur bilishi muhim sanaladi. Abu Yusuf nafaqat Abu Hanifaning eng zabardast shogirdi edi, balki u Abu Hanifa usulini amaliy hayotga tatbiq qiluvchi mazhab nazariyotchisi hamdir. U islom olamida ulkan davlat bo'lgan Abbosiylar xalifaligi davrida bosh qozi sifatida davlat boshqaruv tizimida faoliyat yuritgan. U 100 ga yaqin shogirdlarni yetishtirgan. Abu Yusufning mana shunday yuksak fazilatlari uning ilmiy merosini har tomonlama tadqiq etishni talab qiladi. Biroq uni bir maqola doirasida har tomonlama ochib berishning iloji yo'q. Shu bois maqolada u zotning hayoti, ijodi va fiqhiy qarashlari tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar. *Abu Hanifa, Abu Yusuf, hanafiylik mazhabi, fiqh ilmi, hadisshunoslik, qozil-quzzot, Arab xalifaligi, Horun ar-Rashid, ilmiy-ma'naviy muhit.*

Аннотация. *Абу Йусуф, одна из важнейших фигур исламского мира, жил в последней четверти VIII века. Он по праву, как ученый-муджтахид, внесший большой вклад в развитие исламской науки, занимает высочайшее место в формировании теоретических основ ханафитского мазхаба – одной из школ юриспруденции.*

В этой статье рассматривается общественно-политическая и культурная среда, научное и духовное состояние того времени, когда жил Абу Йусуф, его рождение и родословная, его юные годы, жизнедеятельность и научное наследие, исследуются личности, от которых он перенимал знания, его ученики, период судейства и некоторая правоведческая информация.

Данную статью, основанную на жизни и научном наследии Абу Йусуфа, считающегося одним из теоретиков ханафитской школы, можно оценить как попытку изучения истории ханафитской школы. Абу Йусуф был самым уважаемым деятелем ханафитской школы после Абу Ханифы и очень важным юристом, установившим методы школы. К сожалению, мы видим, что в нашей стране проведено не так много исследований об Абу Йусуфе, который работал главным судьей в государстве Аббасидов, и в то же время непосредственно реализовал методы мазхаба и первым продемонстрировал его успешное применение.

Учитывая, что большинство жителей нашей страны исповедует ислам ханафитского толка, важно знать научное наследие имама Абу Йусуфа, широко пропагандировавшего ханафитскую школу, и его юридическую практику. Абу Йусуф был не только величайшим учеником Абу Ханифы, но также теоретиком мазхаба, применившим метод Абу Ханифы в практической жизни. Он работал в системе государственного управления главным судьей во времена халифата Аббасидов, огромного государства в исламском мире. Он подготовил около ста студентов-юристов. Столь высокие качества Абу Йусуфа требуют всестороннего исследования его научного наследия. Однако всесторонне раскрыть его в одной статье невозможно. Поэтому в статье основное внимание уделяется его жизни, деятельности и взглядам на юриспруденцию.

Ключевые слова. *Абу Ханифа, Абу Йусуф, школа ханафизма, фикх, хадисоведение, казил-куззат, Арабский халифат, Харун ар-Рашид, научная и духовная среда.*

Abstract. *Abu Yusuf is one of the most important figures in the Islamic world who lived in the last quarter of the 8th century. As a mujtahid scholar he made a great contribution to the development of Islamic science. He has an incomparable place in the formation of the theoretical foundations of the Hanafi madhhab which is one of the schools of jurisprudence.*

The socio-political and cultural environment, scientific and spiritual condition of the time when Abu Yusuf lived is described in the article, including his birth and lineage, youth, his life-activity and scientific heritage, informationa about who he learned from and what he learned, about his students, the period of judgeship and some issues related to the jurisprudence.

Abu Yusuf was the most respected figure in the Hanafi school after Abu Hanifa and a very important jurist who

defined the method of the school. Unfortunately, we can see that not many studies have been conducted in our country about Abu Yusuf, who worked as the chief judge in the Abbasid state, and at the same time directly implemented the sectarian method and showed the first examples of its application.

Considering that the majority of the people of our country belong to the Hanafi school, the scientific heritage of Imam Abu Yusuf, who widely propagated the Hanafi school, and his deep knowledge of jurisprudence are considered important. Abu Yusuf was not only Abu Hanifa's greatest disciple, but he was also a sect theorist who applied Abu Hanifa's method to practical life. He worked in the state administration system as the chief judge during the Abbasid caliphate, a huge state in the Islamic world. He trained about a hundred students. Such high qualities of Abu Yusuf require comprehensive research of his scientific heritage. However, it is impossible to reveal it comprehensively in one article. Therefore, the article focuses on his life, work and jurisprudence views.

Key words. *Abu Hanifa, Abu Yusuf, Hanafi madhab, science of jurisprudence, hadith studies, qazil-quzzat (chief judge), Arab caliphate, Harun al-Rashid, scientific and spiritual environment.*

KIRISH

Islom olamida Abu Yusuf nomi bilan mashhur bo‘lgan, hanafiylik mazhabining asoschisi Abu Hanifaning shogirdi va izdoshi Yoqub Abu Yusuf ibn Ibrohim al-Ansoriy al-Kufiy 113/731-yil Kufa shahrida tug‘ilgan (Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи, 2001:12). Abu Yusufning asl ismi Yoqubdir. Uning otasi arab qabilasiga mansub Bejile urug‘idan bo‘lgan. Abu Yusufning onasi madinalik ansoriy bo‘lgani uchun oilasi “ansoriy” deb atalgan. Ba’zi olimlar uning to‘liq ismini Yoqub ibn Ibrohim ibn Habib ibn Hunays ibn Sa’d ibn Habta al-Ansoriy degan fikrdan kelib chiqqan holda uning bobosi Sa’d ibn Habta al-Ansoriy madinalik ansoriylardan bo‘lganligini ta’kidlashadi (Mahmud Matlub, 1972:12). Uning bobosi Uhud jangida yosh bo‘lganligi sababli Payg‘ambarimiz (s.a.v) tomonidan Sa’d Baro ibn Azib, Zayd ibn Arqam, Abu Saidiy al-Hudriy va Zayd ibn Horis kabi jangda ishtirok etishdan qaytarilgan ansorlardan bo‘lgan. Biroq ular Xandaq jangida ishtirok etishgan.

Payg‘ambarimiz (s.a.v) Xandaq jangida bor kuchi bilan jang qilgan yosh sahoba Sa’d ibn Habtani chaqirib:

- Hoy yigit! Siz kimsiz! – deb so‘radilar:

“Men Sa’d ibn Habtaman”, dedi u.

Payg‘ambarimiz (s.a.v) “Alloh sendan rozi bo‘lsin, yaqinroq keling”, – dedi. U yaqinroq kelganida, uni boshini silab qo‘ydi (Mehmed Avci, 2001:28).

Abu Yusuf Sa’d ibn Habtani Xandaq jangida Payg‘ambar tarafidan izzat-ikrom qilinishini chuqur his qilib, “Men o‘sha izzat hurmatning natijasiman” der edi.

Abu Yusuf 13 yoshida Kufa shahri qozisi Abu Laylodan fiqhni o‘rgandi, oradan 9 yil o‘tgach Abu Hanifa dars halqasiga qo‘shildi. U Abu Hanifa vafotiga qadar u zot bilan birga qoldi. Bu haqda o‘zi shunday deydi: “Men ilm o‘rganish uchun Ibn Abu Laylo huzuriga borardim. U kishi meni hurmat qilardi. U biror masalada hukm chiqarishga qiynalsa, Abu Hanifaning so‘zini olar edi. Men Abu Hanifaning dars halqasiga borishni istardim. Biroq Ibn Abu Laylodan hayo qilganimdan bora olmasdim. Bir kuni o‘rtamizda ko‘ngilsiz voqea sodir bo‘ldi. Bu Abu Layloga og‘ir botdi. Men esa, vaziyatdan foydalanib, Abu Hanifaning oldiga borib, u zotning etagidan mahkam tutdim” (Makkiy, 471). U Abu Hanifaning eng yaxshi shogirdi sifatida birinchi bo‘lib hanafiylik mazhabi bo‘yicha kitob yozgan va uning yer yuziga tarqalishiga ulkan hissa qo‘shgan (Aminov H., Primov S. 2017:42).

Abu Yusufning oilasi kambag‘al bo‘lib, yoshligida u qassorlik, ya’ni kiyimlarni yuvib oqartirish bilan shug‘ullangan. U shunday deydi: “Faqirlik chog‘imda hadis va fiqhni o‘rganishga intildim. Bir kuni Abu Hanifa yonida o‘tirganimda onam kelib meni o‘zi bilan olib ketdi va dedi: “Abu Hanifaga qarab oyoq uzatma, uning noni pishiq, sen esa hayotimizni ta’minlashga majbursan”. Men onamga itoat qilib, bu ilm izidan voz kechishga qaror qildim. Abu Hanifa meni qidirib topib, darsga qaytishni so‘radi. Men esa uning majlisiga qaytib keldim. Uning majlisiga qaytganimning ilk kuni edi, u “seni bizdan nima uzoqlashtirdi?” deb so‘radi. “Hayotimizni ta’minlash va onamga itoat qilish” deb javob berdim va o‘rnimga o‘tirdim. Odamlar chiqib ketganidan keyin u menga bir xaltacha tutqazdi, “bundan foydalanib tur” dedi. Qarasam, ichida 100 dirham bor ekan. U menga qarab: “har qachon bu tugasa, menga xabar bergil” dedi.

Men davraga borib turdim, biroz muddatdan keyin yana 100 dirham berdi, shunday qilib, muhtojlikdan chiqib, badavlat bo‘lganimizga qadar u menga yordam berib turdi” (Ahmad Shalabiy, 8 jild:199).

Imom Abu Hanifa Abu Yusufning fazli va ilmini e’tirof qilar ekan, u kasal bo‘lganida shunday deydi: “Mabodo bu yigit vafot etsa, yer yuzidagi eng ilmli inson vafot etgan bo‘ladi”. Yana ayganki: “Meni hech kim Abu Yusufchalik mahkam tutgan emas”, “U shogirdlarim ichida barcha ilmlarni o‘zida jam qilganidir” (Kardariy, 2004:397).

USLUBLAR

Abu Yusufning hayoti va ijodi turli olimlarning asarlari hamda tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari asosida o‘rganishda qiyosiy-tarixiy, germenevtik, retrospektiv tahlil, tizimli yondashuv, kreativ yondashish, dialektik, sinergetik ilmiy bilish usullaridan

foydalanildi.

Abu Yusufning yuksak ma'rifatli shaxs bo'lib yetishishida u tug'ilib o'sgan Kufa shahridagi ilmiy muhit ham katta rol o'ynagan. Kufa shahri 638-yilda Sa'd ibn Abu Vaqqos tomonidan Iroqning janubida, Frot daryosining g'arbiy sohilida asos solingan. Bu nom "dumaloq qumtepa" degan ma'noni anglatadi. Arablar tosh va qizg'ish qumli bu joyni «Kufa» deb atashgan (Mehmed Avci, 2001:29).

Umar (r.a)ning buyrug'i bilan janubiy arab badaviy qabilalari va Eron millatiga mansub kishilar Kufaga kelib yashay boshladilar. Bu murakkab holat turli ichki nizolar va siyosiy beqarorliklarini keltirib chiqardi. Ali (r.a) Jamal voqeasidan keyin xalifalik poytaxtini Kufaga ko'chirdi. U 661-yilda mana shu joyda vafot etdi. Uning o'g'illari imom Hasan va Husayn davrida Kufa juda notinch kunlarni, ichki urushlarni boshidan kechirdi.

Kufaga asos solingach Badr jangi sahobalaridan 70 kishi va bay'atda qatnashgan 300 nafar sahoba bu yerga ko'chib o'tdilar. Bu sahobalar orasida Ammor ibn Yasir va Abdulloh ibn Mas'ud ham bor edi. Ali (r.a), Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abdulloh ibn Mas'ud, Ammor ibn Yasir, Abu Qatoda, Abu Muso al-Ash'ariylar tufayli Kufa fiqh va hadis ilmi markaziga aylandi (Mahmud Matlub, 1972:22).

Abu Yusufning Kufada tug'ilganligi uning ilmiy faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Abu Yusuf Kufada ko'plab olimlardan saboq olgan. Uning eng muhim ustozi Abu Hanifa hisoblanadi. U Ibn Abu Laylo, Molik ibn Anas, Sufyon ibn Uyayni, Ismoil ibn Umayya, Ibn Qurayj, Hanzala ibn Abu Sufyon, Hishom ibn Urva, Abu Is'hoq ash-Shayboniy, Sulaymon va boshqa olimlardan fiqh va hadis ilmini o'rgangan (Ahmed Ozel, 1990:20). Abu Yusuf mashhur tarixchi Muhammad ibn Ishoqdan Islom tarixi ilmini o'rgandi (Samil islom ensiklopediyasi, 1990:29). Hadis ilmidagi eng buyuk ustozi Husayn ibn Abdurahmon hisoblanadi (Salim Ogut, DIA.c.X:263). Abu Yusuf arab tili grammatikasi ilmini o'zi ismini tilga olmagan allomadan o'rgangan. Ato ibn Soib, Yahyo ibn Sa'd kabi ko'plab kishilardan hadislar jamlagan. Abu Yusufning ustozlarini 2 guruhga ajratish mumkin: hadis va fiqh.

Xalifa Mansurning taklifiga binoan Hishom ibn Urva (vafoti 146/763), Muhammad ibn Is'hoq (vafoti 151/768), Yahyo ibn Said al-Ansoriy (vaf. 143/760), Robiya ibn Abu Abdurahmon (vaf. 136/753), Hanzala ibn Abu Sufyon al-Jumahiy, Abdulaziz ibn Abu Salama (vaf. 164) kabi Hijozlik ulamolar Iroqqa kelib, bu yerda islom ilmlarini yoydilar. Abu Yusuf ularning majlislariga tez-tez borib, Hijozlik bo'lgan bu olimlardan hadis o'rganar edi. Shuning uchun ham Abu Hanifaning shogirdlari orasida Abu Yusuf "hadis ilmida ularning eng bilimdoni" deb atalgan. Manbalarda zikr qilinishicha, u dastlab hadisshunoslik bilan shug'ullanib, har kuni muhaddislar bilan 50-60 ta hadisni o'rganar va boshqalarga o'qib berar edi. U Hishom ibn Urva, Ato ibn Soib, Abu Ishoq Shayboni va boshqalardan hadis rivoyat qilgan (Juzjoniy A.Sh., 2002:156).

Abu Yusuf ilmiy faoliyatining avvalida hadis ilmiga yuzlangan. Abu Is'hoq Shayboniy, Sulaymon at-Tamimiy, Yahyo ibn Said, al-A'mash al-Ansoriy, Hishom ibn Urva, Ato ibn Soib, Muhammad ibn Ishoq ibn Yasir va Lays ibn Sa'd kabi o'z davrining yetuk muhaddislaridan saboq olgan.

Abu Yusufning hozirgacha saqlanib qolgan asarlaridagi hadislarga e'tibor qaratsak, quyidagi olimlardan hadis rivoyat qilganini ko'rishimiz mumkin: Muhammad ibn Ishoq ("Kitob al-xaroj"da 32, "Ar-raddu a'laa Siyar al-Avzo'i"da 7), Hajjos ibn Ertot ("Kitob al-xaroj"da 31, "Ar-raddu a'laa Siyar al-Avzo'i"da 3, "Ihtilofu Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo"da 8), A'mash ("Kitob al-xaroj"da 29), Ash'os ibn Savvor ("Kitob al-xaroj"da 23, "Ar-raddu a'laa Siyar al-Avzo'i"da 1), Mug'iyra ("Kitob al-xaroj"da 23), Abu Hanifa ("Kitob al-xaroj"da 20, "Ar-raddu a'laa Siyar al-Avzo'i"da 2), Hasan ibn Umar ("Kitob al-xaroj"da 17, "Ar-raddu a'laa Siyar al-Avzo'i"da 6, "Ihtilofu Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo"da 3), Hishom ibn Urva ("Kitob al-xaroj"da 13, "Kitob al-asar"da 3), Yahyo ibn Said ("Kitob al-xaroj"da 13, "Kitob al-asar"da 2), Ibn Abu Laylo ("Kitob al-xaroj"da 12, "Ar-raddu a'laa Siyar al-Avzo'i"da 1), Said ibn Abu Aruba ("Kitob al-xaroj"da 10, "Ihtilofu Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo"da 1, "Kitob al-asar"da 1), Ismoil ibn Abu Holid ("Kitob al-xaroj"da 10, "Ihtilofu Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo"da 1), Sufyon ibn Uyayna ("Kitob al-xaroj"da 9), Lays ibn Sa'd ("Kitob al-xaroj"da 9), Abon ibn Abu Iyos ("Kitob al-xaroj"da 8, "Kitob al-asar"da 1), Abdulmalik ibn Jurays ("Kitob al-xaroj"da 8), Mujolid Ibn Said ("Kitob al-xaroj"da 7, "Ar-raddu a'laa Siyar al-Avzo'i"da 3, "Ihtilofu Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo"da 1), Qays ibn Rabi' al-Asadi ("Kitob al-xaroj"da 7), Mis'ar ibn Qudam ("Kitob al-xaroj"da 6, "Ar-raddu a'laa Siyar al-Avzo'i"da 1, "Kitob al-asar"da 1), Abu Is'hoq ash-Shayboniy ("Kitob al-xaroj"da 5, "Ar-raddu a'laa Siyar al-Avzo'i"da 1), Osim ibn Sulaymon ("Kitob al-xaroj"da 5, "Ar-raddu a'laa Siyar al-Avzo'i"da 1), Abdurahmon ibn Sobit ibn Savbon ("Kitob al-xaroj"da 5), Ismoil ibn Yunus ("Kitob al-xaroj"da 5), Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Muhojir al-Busayli ("Kitob al-xaroj"da 5), Ubaydulloh ("Kitob al-xaroj"da 4), Dovud ibn Abu Hind ("Kitob al-xaroj"da 4, "Ihtilofu Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo"da 1), Abdulloh ibn Volid al-Madaniy ("Kitob al-xaroj"da 4), Mansur ("Kitob al-xaroj"da 4), Muhammad ibn as-Soib Kalbiy ("Kitob al-xaroj"da 4, "Ar-raddu a'laa Siyar al-Avzo'i"da 3), Ato' ibn as-Soib ("Kitob al-xaroj"da

3, “Ar-raddu a’laa Siyar al-Avzo’i”da 1), Abdurahmon ibn Abdulloh al-Mas’udiy (“Kitob al-xaroj”da 3), Sariy ibn Ismoil (“Kitob al-xaroj”da 3), Yazid ibn Abu Ziyod (“Kitob al-xaroj”da 3), Muhammad ibn Abdulloh ibn Amr ibn Shu’ayb (“Kitob al-xaroj”da 3), Muhammad ibn as-So’ib al-Kalbiy (“Kitob al-xaroj”da 3), Muhammad ibn Amr ibn Alqama (“Kitob al-xaroj”da 3), Hishom ibn Sa’d (“Kitob al-xaroj”da 3), Abdulloh ibn Ali (“Kitob al-xaroj”da 3), Ismoil (“Kitob al-xaroj”da 3), Mutarrif (“Kitob al-xaroj”da 2, “Ihtilofu Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo”da 2), Husayn (“Kitob al-xaroj”da 2, “Kitob al-asar”da 1), Husayn ibn Abdurrahmon (“Kitob al-xaroj”da 1, “Kitob al-asar”da 2), Abdulmalik ibn Abu Sulaymon (“Kitob al-xaroj”da 1, “Ihtilofu Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo”da 1, “Kitob al-asar”da 1), Lays ibn Abu Sulaym (“Kitob al-xaroj”da 1, “Ihtilofu Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo”da 1, “Kitob al-asar”da 1), Ubaydulloh ibn Umar (“Kitob al-xaroj”da 1, “Ar-raddu a’laa Siyar al-Avzo’i”da 1, “Kitob al-asar”da 1), Ato’ ibn Aslon (“Kitob al-xaroj”da 1, “Kitob al-asar”da 1), Ismoil ibn Muslim (“Kitob al-xaroj”da 1, “Kitob al-asar”da 1), Ismoil ibn Umayya (“Ar-raddu a’laa Siyar al-Avzo’i”da 2, “Kitob al-asar”da 1), Hakim (“Kitob al-xaroj”da 1, “Ihtilofu Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo”da 1), Hunayf ibn Abdurrahmon al-Jazari (“Ihtilofu Abi Hanifa va Ibn Abi Laylo”da 1, “Kitob al-asar”da 1) (Hatice Engin Ersoy, 2019:23-26).

Abu Yusuf ba’zan ustozlari ismini tilga olmay, ular joylashgan hududga bog‘lagan holda ma’lumot keltirgan. Masalan, Madinadagi bir muhaddis, Madinalik bir necha olim, Madinalik ulamolardan bo‘lgan ulug‘ shayx, Madinalik muhaddis, Madinalik hadis ulamolaridan biri, Kufalik ba’zi ulamolar, Kufalik muhaddislardan biri, Damashqlik bir olim, Sahobalardan ta’lim olgan Damashqlik ulamolaridan, Basralik muhaddislardan biri, Qurayshlik muhaddis kabi.

Ammo, u keyinchalik fiqh ilmini o‘rganishga qiziqib qoladi. Bunga, ehtimol, o‘sha vaqtdagi ijtimoiy-siyosiy holat ham sabab bo‘lgandir. Chunki, o‘sha davrda xalifalikdagi diniy-siyosiy muhit islom huquqshunosligida yangicha ilmlarga va olimlarga muhtoj bo‘la boshlaydi. Abu Yusuf fiqh ilmini dastlab Ibn Abu Laylodan, keyin Abu Hanifadan o‘rgandi.

Ibn Abu Laylo (h. 124-133) o‘z davrining buyuk fiqh olimi va qozisi hisoblanadi. Uning asl ismi Muhammad ibn Abdurahmon ibn Abu Laylo bo‘lib, otasi tobeinlardan biri bo‘lgan, o‘z davrida ahli ra’y vakili sifatida Kufa fiqh maktabining namoyondasi edi (İcli, Ma’rifetu’s-sikat, II, 245). Ibn Abu Layloning tarjimai holidan uni biror hududga ilmiy sayohatga chiqmagani ko‘rishimiz mumkin. Chunki u tomonidan aytilgan hadislar kufalik olimlarga tegishli ekanligi shunday xulosa chiqarishimizga sabab bo‘ladi. Albatta, bunda Kufaning o‘sha davrning ilm-fan markazlaridan biri bo‘lganligi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Abu Hanifa bilan bir davrda va bitta shaharda istiqomat Ibn Abu Laylo ham Umaviylar, ham Abbosiylar davrida o‘ttiz uch yil qozilik lavozimida faoliyat yuritgan. Abu Yusuf uning shogirdi sifatida ustozining ilmiy merosini keyingi avlodga yetgazishda ulkan hissa qo‘shgan. Ibn Abu Layloning shogirdlari orasida ko‘plab qozilar bo‘lgan.

Abu Yusuf Ibn Abu Layloni tark etib, Abu Hanifa fiqh maktabiga borib qo‘shildi. Bunga ba’zi sabablarni keltirish mumkin:

- Ibn Abu Laylo ayrim murakkab masalarga duch kelganida, u bu masalada Abu Hanifaning fikrini bilmoqchi bo‘lib, Abu Yusufni uning oldiga yuborib turardi. Vaqt o‘tib, ilm jihatidan Abu Hanifadan ta’sirlangan Abu Yusuf, Ibn Abu Laylo bilan o‘rtasida sodir bo‘lgan voqeadan so‘ng, Abu Hanifaning ma’ruza to‘garagiga qo‘shiladi.

- Ibn Abu Laylo shogirdi Abu Yusufni Abu Hanifaning ma’ruza to‘garagiga yuborib, uning ba’zi masalalarga yondashuvini o‘rganadi va bir kuni u sobiq shogirdi Abu Yusufni uchratib: “U bilan birga bo‘lishni to‘xtatma, chunki fiqh ilmi bo‘yicha unga o‘xshaganini ko‘rmaysan” (Bezzozi, Manoq*ıb*, 394) deydi. Bu uning Abu Hanifa fiqhini qadrlaganligi va fikrlariga ahamiyat berganligidan darak beradi.

Abu Yusuf Ibn Abi Layloning eng yaxshi shogirdi bo‘lib, uning fiqhiy qarashlarini bugungi kungacha saqlanib qolishini ta’minlagan. Darhaqiqat, “Abu Yusuf bo‘lmaganida, na Abu Hanifaning, na Ibn Abu Layloning qarashlari tarqalar edi”, deyiladi manbalarda (Hatib al-Bag‘dodi, Tarihu Bag‘dod, XIV, 245). Abu Yusuf Ibn Abu Layloning to‘qqiz yil shogirdi bo‘lgan va unga Abu Hanifa kabi katta ta’sir ko‘rsatgan. Buni “Ixtilofu Abi Hanifa va Ibn Abu Laylo” asari o‘rganilganda Abu Yusuf qirq oltita masalada, “Kitob al-xaroj” asarida uchta masalada Ibn Abu Laylo bilan hamfikr ekanidan ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, Iroq fiqhining ikki asosiy tomiridan birini tashkil etuvchi va Hazrati Aliga oid ilmiy merosni Abu Yusuf Ibn Abu Laylo orqali olgan. Ra’ydan foydalanishda Ibn Abu Laylo Abu Hanifadan oldinroq boshlagan deb, fikr bildiradigan olimlar ham bor. Chunki, Ibn Abu Laylo Kufada qozi bo‘lib ishlaganida, o‘z qarashlarini hayotga tatbiq etish imkoniga ega bo‘lgan. Hanafiy mazhabining shakllanishiga Ibn Abu Laylo bilvosita ta’sir ko‘rsatgan. Chunki uning qozi sifatida bergan hukmlari Abu Hanifaning dars xalqasida muhokama qilingan va ba’zi hukmlar munozaralarga sabab bo‘lgan.

Abu Hanifa bilan o‘n yetti yil birga bo‘lgan va undan fiqh ilmini olgan Abu Yusuf o‘z sohasi bo‘yicha bilimini shunday izohlaydi: “Biron bir fiqh masalasida

qiynalib qolganimizda va Abu Hanifadan bu muammo haqida so‘raganimizda, u bizga muammoni xuddi qo‘lini yengidan sug‘urib yechganidek hal etib berardi” deb izohlaydi (ibn Abdilberr, al-Intiqo, 138). Abu Yusuf bayramlarda yoki ustozining xastaligida undan bir kun ham ayrilmaganini, Abu Hanifa ota-onasidan oldin ustozi Hammodni duo qilganidek, u ham ustozini har doim farz va nafl namozlarida duo qilishini aytib o‘tgan.

Abu Yusufning o‘z fikrini to‘g‘ri bayon eta olishi, darslarga qatnashishi, xotirasi kuchliligi bu ilm dargohida Muhammad ibn al-Hasan, Muallo ibn Mansur, Hilolur-ra’y, Ibn Samoa va boshqa ko‘plab shogirdlari kabi alohida o‘rin tutgan. Abu Hanifa: “Bizning shogirdlarimiz mana shu o‘ttiz olti kishidir. Ulardan yigirma sakkiz nafari qazo, olti nafari fatvo, ikkitasi – Abu Yusuf va Zufarga ishora qilib, hukm va fatvo bera oladiganlarni tayyorlaydi” (Hatib al-Bag‘dodiy, Tarixi Bag‘dod, XIV, 247-248) degan edi.

Vaki’ ibn Jarrohning unga: “Abu Hanifa xato qildi”, degan kishiga bergan quyidagi javobi Abu Hanifa shogirdlarining fiqh ilmidagi ustunligini bildiradi: “Abu Hanifa bilan birgalikda qiyosda Abu Yusuf, Zufar va Muhammad, hadis ilmida Yahyo ibn Abu Zakariya, Hafs ibn G‘iyos, Hayyon va Mitdal ibn Ali, arab tilida Qosim ibn Ma’in al-Ma’sudiy, zuhdda Dovud ibn Nusayr va Fuzayl ibn Iyoz bor ekan u qanday qilib xato qilishi mumkin? Kimning mana shunday shogirdlari va maslahatchilari bo‘lsa, xato qilmaydi. Chunki, agar Abu Hanifa xatoga yo‘l qo‘ysa, ular uni to‘g‘irlab turadilar” (Razzoq, Habib, 1430/2009:156).

Bu ma’lumotlar Abu Hanifaning dars xalqasi kengash sifatida faoliyat yuritganligi, masalalarni jamoa bilan birgalikda hal etishga harakat qilinganligi, eng muhimi, jamoa ichida Abu Hanifa shogirdlarining mustaqil qarashga ega bo‘lganligi va to‘g‘ri hukm chiqarishda katta o‘ringa egaligini ko‘rsatadi.

Abu Hanifa huzurlarida ikki shogirdi o‘rtasida bo‘lib o‘tgan bahs yakunida u Zufarga: “Abu Yusuf bo‘lgan shaharning boshlig‘i bo‘lishni hohlama” deb Abu Yusufning foydasiga hukm qilgani (Hatib al-Bag‘dodi, Tarihu Bag‘dod, XIVAF. 247), uning shogirdlaridan hech biri Abu Yusuf kabi u bilan birga bo‘lmagan, masalan, uning shogirdi Dovud at-Tai’ uzoq ta’lim olsa-da, odamlar undan Abu Yusufchalik foyda ko‘rmaganligini, Dovud ibn Rashid al-Xorazmiyning Abu Hanifadan ba’zi masalalarni so‘rab, javob olganlaridan keyin, ba’zilarini unutib qo‘yib, ular uchun unga qaytib borishdan qo‘rqib, Abu Yusufdan so‘rashgani va Abu Yusuf uning barcha savollarga tushunarli tarzda javob berganligi (Bazzozi, Menoqıb, 412) uning yuksak ilm sohibi bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Abu Yusuf Abu Hanifadan yetarlicha ta’lim olgach, ma’lum darajadagi ilmiy salohiyatga yetdim deb o‘ylab, ustozining dars xalqasini bir muddat tark etadi va o‘zining dars to‘garagini tuzadi. Shunda Abu Hanifa Abu Yusufning oldiga bir odam yuborib, undan bir qancha savollarga javob berishini so‘raydi, Abu Yusuf bu savollarga to‘g‘ri javob bera olmasligini bilgach, o‘zining kamchiliklarini tushunib, yana ustozining dars xalqasiga kirishga qaror qiladi (Kavsari, Husnut-taqodi. 57-58).

MUHOKAMA

Abu Yusuf dastlab hadis ilmi bilan shug‘ullangan bo‘lsada, Abu Hanifaga shogird bo‘lgach ra’y va qiyos tarafdoriga aylandi, Abu Hanifaga ergashib, ba’zan uning fikrlariga qarshi fikr bildirib buyuk fiqhshunos olim bo‘lib yetishdi. U endi fiqh ya’ni islom huquqshunosligi bilan shug‘ullanar edi. U fiqhiy masalalarni yechishda dastlab Qur’on Karim, keyin hadislarga murojaat etar, so‘ngra esa Abu Hanifa targ‘ib etgan ra’y va qiyosga tayanar edi. Natijada xalq orasida uning obro‘yi oshib hamma uning oldiga keladigan bo‘ldi.

Abu Yusuf ta’lim olgan ikki buyuk ustozi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Ibn Abu Laylo qozilik ishlariga ko‘proq e’tibor qaratganligini va shu sababli u birorta asar yozishga yoki o‘z bilimlarini shogirdlariga yetkazish uchun dars o‘tishga imkoni bo‘lmaganini ko‘ramiz; Abu Hanifa esa yillar mobaynida o‘zining dars xalqasida ijtihod qobiliyatiga ega bo‘lgan va asarlar yozgan shogirdlarni tayyorladi, biroq qozilik ishlari bilan shug‘ullanmagani bois, fiqhga oid asar yozmaganligini ko‘rashimiz mumkin. Abu Yusufning eng muhim xususiyati shundaki, u o‘z bilimlarini fiqhiy va qozilik ishlarida qo‘llay olgan, turli asarlar yozgan, o‘z dars xalqasini yaratib bilimlarini shogirdlariga yetkazdi.

Abu Yusufning shogirdlari orasida ba’zilari hadis ilmiga qiziqishi yuqori bo‘lsa, boshqalari fiqh va qozilik bilan mashg‘ul bo‘lishni afzal bilgan. Uning uch yuzdan ortiq shogirdlari mavjud: Ja’far ibn Yahyo Barmakiy (vaf. 803), Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy (749-805), Yusuf ibn Abu Yusuf (vaf. 808), Hafs ibn G‘iyos an-Nihoiy (vaf. 810), Vaki’ ibn Jarroh (vaf. 812), Abu Sulaymon Muso ibn Sulaymon al-Juzjoniy (vaf. 816), Hishom ibn Ubaydulloh ar-Roziy (vaf. 836), Amr ibn Muhammad an-Noqid (vaf. 817), Yahyo ibn Odam (vaf. 818), Hasan ibn Ziyod al-Lu’lu’ (vaf. 819), Hasan ibn Abu Malik (vaf. 819), Hafs al-Fard (vaf. 819), Yazid ibn Horun (vaf. 821), Mualla ibn Mansur ar-Roziy (vaf. 826), Ismoil ibn Hammod ibn Abu Hanifa (vaf. 827), Asad ibn al-Furat (vaf. 828), Muhammad ibn Abdulloh al-Ansoriy (vaf. 830), Ibrohim ibn al-Jarroh at-Tamimiy (vaf. 832), Bishr ibn G‘ıyos al-Mariziy (vaf. 833), Abul-Valid at-Tayolisiy (750-842), Ali ibn al-Sa’d al-

Javhariy (vaf. 844-845), Muhammad ibn Samoa (vaf. 848), Yahyo ibn Ma'in (vaf. 847), Ali ibn al-Madiniy (vaf. 848-849), Bishr ibn al-Valid al-Kindiy (vaf. 853), Ahmad ibn Hanbal (vaf. 855), Ahmad ibn Mani' (vaf. 859), Hilol ibn Yahyo (Hilol ur-ra'y) al-Basriy (vaf. 860) (Hatice Engin Ersoy, 2001:53).

Abu Yusufning shogirdlarini o'rganganimizda quyidagi jihatlar e'tiborimizni tortdi:

– Muhammad ibn Hasan, Asad ibn Furot, Abul-Volid at-Tayolisiy, Bishr ibn Valid al-Kindiy, Abdulmalik ibn G'anim al-Ifriqiy, Muhammad ibn Xolid ar-Roziy, Ishoq ibn Furotiy al-Kindiy, Toriq as-Salomkoniy va Fazl ibn G'anim kabilar olimlar ham Abu Yusufning, ham Imom Molikning shogirdlari bo'lgan. Bu ikki mazhab o'rtasida yaqinlashuv mavjud bo'lib, ayniqsa Muhammad ibn Hasan va Asad ibn Furot tomonidan yozilgan asarlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Hali mazhabparastlik paydo bo'lmagan bu davrda talabalar egallashi mumkin bo'lgan bilimlarning turli xilligi tabiiy ravishta ularning barchasini o'rganish imkonini bergan.

– Bu davrda talabalar turli o'lkalardan bilim olish uchun kelgan. Buni ularning nisbatlariga qarab bilib olish mumkin: Balxiy, Nisoburiy, Harroniy, Basriy, Hamadoniy, Marvaziy, Xorazmiy, Xurosoniy kabi.

– Abu Yusuf ra'y ahlidan bo'lsa-da, muhaddis shogirdlari sonining ko'pligi e'tiborimizni tortadi. Bu holat uning ra'y ahli ichida hadis ahliga eng yaqin shaxs sifatida qaralishini ko'rsatib turibdi. Masalan, Amr ibn an-Noqid, Yahyo ibn Odam, Ali ibn Sa'd al-Javhariy, Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madiniy, Hasan ibn Ziyod az-Ziyodiy, Muhammad ibn Sabboh kabi.

– Abu Hanifaning ba'zi shogirdlari uning vafotidan keyin Abu Yusufdan fiqh ilmini o'rganishda davom etganlar. Muhammad ibn Hasan, Vaki' ibn Jarroh, Hafs ibn G'iyos an-Nahoiy, Hasan ibn Ziyod al-Lu'lu', Hammad ibn Dalil kabi.

– Uning shogirdlarining ba'zilari ham Abu Yusufdan, ham Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniydan ilm olgan. Abu Sulaymon al-Juzjoniy, Muallo ibn Mansur, Asad ibn Furot, Muhammad ibn Samoa, Hishom ibn Ubaydulloh ar-Roziy, Hasan ibn Abu Molik, Ali ibn Muslim at-Tusiy, Amr ibn Muslim at-Tusiy, Amr ibn Muslim kabi.

– Abu Yusufning ko'plab shogirdlari qozilik lavozimini egallashgan. O'g'li Yusuf (Bag'dod), Hafs ibn G'iyos an-Nihoiy (Kufa va Bag'dod), Hasan ibn Ziyod al-Lu'lu' (Kufa), Ismoil ibn Hammod (Bag'dod, Kufa, Basra, Raqqa), Asad ibn Furot (Kayravon), ibn Abdulloh al-Ansoriy (Basra, Bag'dod va Mazolim qozisi), Ibrohim ibn al-Jarroh (Misr), Muhammad ibn Samoa (Bag'dod), Bishr ibn Valid al-Kindiy (Bag'dod), Tavba ibn Sa'd (Mirov), Hammod ibn Dalil (Madoin), Hibbon ibn Bishr ibn Muhorik (Isfahon va Bag'dod), Ali ibn Harmala (Bag'dod), Abdurrahmon ibn Mishar (Jabbul), Fazl ibn G'anim (Ray va Misr), Qosim ibn Hakam Muhammad ibn Abu Raso (Bag'dod) (Hacak, Hasan. 2014:514).

NATIJA

Abu Yusuf xalifa Mahdiy (775-785) davrida 783-yil Bag'dod shahri qozisi sifatida faoliyatini davom ettirdi. Xalifa Horun ar-Rashid davrida mamlakatda qozil-quzzot (bosh qozi) lavozimi joriy etilib, bu vazifaga Abu Yusuf tayinlandi (Hendri H.A. Vol. 35. 2018:42).

Ma'lumki, qozilik dastlab payg'ambarimiz davrida joriy etilgan bo'lib, u vaqtlarda qozilar kichik masalalarni, jumladan uy-xo'jalik yumushlari, o'zaro kelishmovchiliklar kabi ishlarni ko'rib chiqardi. Odatda qozilarni xalifalarning o'zlari maxsus joylarga tayinlagan. Ular kichik-kichik ishlarni ajrim qilish bilan birgalikda o'sha yerdagi diniy hayotni bir maromda ushlab turgan. Lekin katta masalalarni, xususan odam o'ldirish, yuqori lavozimli shaxsga suiqasd qilish kabilarga nisbatan xalifaning o'zi xukm chiqargan. Abu Yusufga esa butun xalifalikdagi barcha qozilarni saylash va lavozimidan ozod etish, har qanday fiqhiy masalani yechish kabi huquqlar berildi. Bu holat xalifalikda hanafiylik mazhabining mustahkamlanishiga va uning keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

Abu Yusuf xalifa Horun ar-Rashid bilan bir qancha sayohatlarga chiqqan. Makkada Imom Shofe'iy, Madinada Imom Molik bilan uchrashuvlar va munozaralar o'tkazgan.

Imom Abu Yusufning qozilik lavozimini qabul qilishi tanqidga uchradi, chunki uning ustozi Abu Hanifa qozilik lavozimini rad etgani sababli zindonga tashlangan edi. Bu uni hukumatning odami deb nomlanishiga sabab bo'lgan. Bunday xulosaga kelishdan oldin, ustozi Abu Hanifa nima uchun qozilik lavozimini qabul qilmaganini tushunib olishimiz zarur.

Abu Hanifa o'ziga taklif qilingan qozilik lavozimini egallamagani uchun Umaviylar davrida ham Abbosiylar davrida ham qamoqqa tashlanib, qiynoqqa solingan. Abu Hanifa shia mazhabida bo'lmasa-da, biroq Ummaviylarni xalifalik qilishga haqqi yo'q deb hisoblar edi. Imom Zayd ibn Ali Kufada Ummaviylarga qarshi qo'zg'alon ko'taradi. O'sha vaqtda hokimiyat Hishom ibn Abdulmalik qo'lida edi. Zayd Abu Hanifaning ustozlaridan biridir. Barcha musulmonlar Zaydni qo'llab-quvvatlab, u bilan jangga qirq ming musulmon chiqadi. Mahorabada Zayd qahramonlarcha halok bo'ladi. Abu Hanifa: "Zaydning bu isyoni Rasulullo (s.a.v)ning Badr janggiga qiyosalanadi» (Abu Zahra. 1981:36-40) degan edi. Garchi Abu Hanifa bu isyonda ishtirok etmagan bo'lsa-da, biroq qo'zg'alon uchun o'n ming

dirham berdi. Zayd ibn Ali qo‘zg‘aloni bostirilgach, uning jasadi xurmo daraxtiga osib qo‘yildi. Zaydning o‘g‘li va nevaralari ham xuddi shunday o‘ldirildi. Abu Hanifa Umaviylar tomonidan sodir etilgan bunday vaxshiylik keskin tanqid qildi. Shu sababli Abu Hanifani Ummaviylar ta’qib eta boshladi. Ummaviylar voliysi Ibn Xubayra barcha ulamolarni yig‘ib, ularning har biridan Ummaviylar hukumatida o‘z o‘rnini egallashlarini so‘raydi va bu orqali ularning hukumatga hayihohligini sinamoqchi bo‘ladi. U Abu Hanifani ham lavozimga taklif qiladi, lekin u buni keskin rad etadi.

Ibn Hubayra uni muhrdorlik lavozimiga taklif etadi. Agar qabul qilmasa uni kaltaklashini aytadi. Abu Hanifa kelgan vositachilarga shunday javob beradi: “Agar Vosit masjidining eshiklarini sanab berishimni so‘raganida ham buni qabul qilmagan bo‘lardim. Voliy bir odamni qatl qilishga qaror qilib uni boshini tanasidan judo qilishga hukm qilsa, men qanday qilib qarorni murlashim mumkin? Allohga qasamki, o‘lsam ham bunday ishni qila olmayman” (Abu Zahra. 1981:38).

Shunda Abu Hanifa hibsga olinib, qattiq kaltaklandi. Uning kaltaklanib vafot etishi aholida Umaviylar hukumatiga nisbatan qahr-u g‘azabning paydo bo‘lishidan qo‘rqqan Ibn Hubayra: taklif etilgan lavozimni rad etish o‘rniga, kelajakda uni qabul qilishim mumkinligini aytishini so‘rasa-da, Abu Hanifa buni ham qabul qilmaydi. Ibn Hubayra Abu Hanifani qo‘yib yuborishga majbur bo‘ladi. Imomi A’zam panoh izlab Hijozga ketadi.

Abbosiylar hokimiyat tepasiga kelgach, u xursand bo‘lib Kufaga qaytib keldi. Abbosiylar boshqaruvining ilk yillarida Abu Hanifa yangi hukumatga sodiq edi. Lekin bu holat xalifa Mansur Payg‘ambar oilasi a’zolariga qarshi siyosatni olib borishni boshlagach o‘zgardi. Chunki Abu Hanifa Payg‘ambar oilasi vakillarini juda hurmat qilardi va yaxshi ko‘rardi. Xalifa Mansur davrida pag‘ambar avlodi vakillari Ali va Muhammadning shafqatsizlik bilan o‘ldirilishi, Alining nabiralaridan Muhammad an-Nafs uz-Zakiyya ibn Abdulloh va uning ukasi Ibrohimning qamoqqa tashlanganidan so‘ng vafot etishi Abu Hanifaning Abbosiylar hukumatiga qarshi bo‘lib qolishiga sabab bo‘ldi.

Abu Hanifani o‘ldirishni qo‘mondonlaridan biriga topshirgan Mansur bunga ham erisha olmadi. Abu Hanifaning o‘sha paytdagi qarashlari xalifa Mansurda unga nisbatan nafrat uyg‘otdi, u o‘z kuch-qudratini bildirish uchun keskin chora ko‘rishni lozim topdi. U Abu Hanifaga qozilik lavozimini taklif qildi. Xalifa Mansur Abu Hanifa bu lavozimni qabul qilmasligini yaxshi bilar edi. Ammo u buning uchun uni jazolasa haqli bo‘lishini bilardi.

Abu Hanifa: “Qozi bo‘la oladigan kishida zarur paytda sizga, farzandlaringizga va qo‘mondonlaringizga qarshi hukm chiqarish kuchiga ega bo‘lishi kerak. Menda esa bunday kuch yo‘q” deya hukumat zulmiga sherik bo’lmaslikni nazarda tutib, rad etadi (Abu Zahra, 1981:48).

Xalifa Abu Hanifani qamoqqa tashlab, har kuni o‘n darra urib, qiynar edi. Sog‘ligi yomonlashganidan keyin uni qo‘yib yuborgan, ammo ma’ruza va fatvo berishni man qilgan. Qisqa vaqtdan keyin u vafot etdi.

Professor M.Yusuf Muso aytadiki: Menimcha, unga bosim o‘tkazishning ahamiyati uning mavjud davlatga bo‘lgan muhabbati va sadoqatini sinash edi. Bo‘lmasa, o‘sha paytda qozi bo‘lishi mumkin bo‘lgan, taklif qilishsa, qabul qiladiganlar ko‘p edi. Haqiqatan ham, u bu vazifani o‘z zimmasiga olishdan bosh tortgach, Abu Ja’far Mansur unga: “Bizning hukumat sizga yoqmayotganga o‘xshaydi” (M. Yusuf Musa, 1983:232), degan edi.

Abu Hanifaning siyosiy qarashlari va Abbosiylar hukumati bilan hamkorlik qilmasligi tufayli hukmron sulola vakillari bilan o‘zaro munosabatlarning yomonlashuviga sabab bo’ldi. Bu holat Abu Hanifaning o’limidan keyin ham davom etdi. Hanafiylik mazhabi vakillari hokimiyatga nisbatan beparvolik siyosatiga sodiq qolishdi. Xususan, uning shogirdi Zufar ibn Xuzaylni (vaf. 775) qozilik lavozimiga taklif etishganida, u qat’iyan rad etdi va hukumatdan yashirinishga majbur bo‘ldi.

Biroq, Horun ar-Rashid hanafiylik mazhabiing yirik vakili Abu Yusufni xalifalik bosh qozisi etib tayinlashi, ushbu mazhabning mamlakat bo‘ylab taraqqiy etishiga sabab bo‘ldi. Abu Yusuf ilmli va kuchli xarakterli shaxs edi. Uning qobiliyati va harakatlari evaziga xalifalik gullab yashnadi. Hanafiylik mazhabi davlat mazhabiga aylandi, chiqariladigan qonunlar ushbu mazhab nuqtai nazaridan chiqarilar edi. Hanafiylikning bu darajada yuksalishida Abu Hanifaning buyuk shogirdi Abu Yusufning xizmatlari katta bo‘ldi.

Abu Hanifa vafotidan keyin o‘n olti yil davomida u ham o‘z mazhabiga rioya qilgan holda hukumatga befarq bo‘lib qoldi. Shunga qaramay, u ustozining ilmini davom ettirdi, uning fiqhga oid deyarli barcha kitoblaridan o‘z asarlarida foydalandi va uning qarorlarini o‘z fikrlari bilan to‘ldirdi.

Bu asarlar butun mamlakat bo‘ylab tarqaldi, ular nafaqat ilm ahli doirasiga ta’sir ko‘rsatdi, balki hanafiylik mazhabi tarafdorlari bo‘lgan qozilar va yuqori lavozimli shaxslar hukm chiqarishda asosiy dasturul amal bo’lib xizmat qildi. Shunday qilib, Abu Yusufning ilmiy salohiyati va asarlari u hokimiyatga kelguniga qadar odamlar ongini egallab olgan edi.

Abu Yusufning moddiy ahvoli yaxshi bo‘lganida, ehtimol, u ham ustozining izidan borib, hukumatga nisbatan befarqlikda yashashi mumkin edi. Ammo u

kambag‘al edi va Abu Hanifaning vafoti uni moddiy ta’minotdan mahrum qildi. Hatto, bir kuni moddiy ta’minoti uchun ahli ayolining uyidagi darvozani sotishga majbur bo‘lganida, uning qaynonasi unga qattiq gapiradi. Bu unga ta’sir qildi. U 782-yilda Bag‘dodga bordi, uni xalifa Mahdiy sharqiy Bag‘dod qozisi etib tayinladi. U bu lavozimda xalifa Hodiy hukmronligining oxirigacha davom ettirdi. Xalifa Horun ar-Rashid uni butun Abbosiylar davlatining qozil-quzzoti (bosh qozisi) etib tayinladi.

Bu lavozim islom davlatida ilk bor tashkil etilgan edi. Unga xalifalikdagi barcha qozilarni tayinlash, qonun xujjatlarini ko‘rib chiqish, shuningdek, hukumatning barcha ichki va tashqi siyosatida huquqiy maslahatlar berish vakolati berilgan edi.

Abu Yusufning bu lavozimga tayinlanishi unga katta samara berdi. Birinchidan, u madrasada o‘quvchilariga ma’ruza qilish yoki kitoblar yozish bilan cheklanib qolmasdan kattaroq doirada eng yirik mamlakatning ishlari bilan shug‘ullanadigan bo‘ldi. Bu unga hanafiylik qonunlarini ijtimoiy hayotning dolzarb masalalarida qo’llash imkoniyatini yaratdi va shu bilan uni amaldagi huquqiy tizimiga aylantirdi. Ikkinchidan, qozilarni tayinlash va lavozimidan ozod etish endi uning zimmasiga yuklatilganligi sababli, aksariyat joylarda hanafiylik mazhabi ulamolarini qozi etib tayinlandi va ular orqali hanafiylik qonunlari xalifalikning barcha hududiga tarqaldi. Uchinchidan, u o‘zining yuksak axloqiy qarashlari va ilmiy dunyoqarashi orqali Ummaviylar davridan beri saqlanib kelayotgan avtokratik boshqaruv shakliga o‘zgartirish kiritdi, uning “Kitob al-xaroj” asari xalifalikning bosh qomusiga aylandi.

Abu Yusuf buyuk faqih olim edi. U masalalarga qonuniy nuqtai nazardan yondoshardi. Ayrim tarixchilar uni hukmron sulola manfaatlarini himoya qilgan degan yanglish fikr bildiradilar. Hodiy uni sharqiy Bag‘dod qozisi etib tayinlagani, u xalifaning o‘ziga qarshi ish ochgan edi. Horun ar-Rashid davrida keksa nasroniy xalifaga qarshi bog‘ da’vosi bilan ariza bergan.

Abdulloh ibn Muborakning ta’kidlashicha, u Horun ar-Rashidning saroyidagi xosxonasigacha ot minib borar edi. O‘sha paytda hatto bosh vazir ham xalifa saroyiga piyoda borgan. Xalifa uni har doim birinchi bo‘lib kutib olardi. Horun ar-Rashiddan nega Abu Yusufni bu qadar baland ko‘targani haqida so‘rashganida u shunday javob bergan: “Men uni qaysi sohada sinab ko‘rgan bo‘lsam, u uni mukammal ado etgan. U qat’iyatli va nafsga berilmagan odam. Agar unga o‘xshash boshqa birov bo‘lsa, uni ko‘rishdan mamnun bo‘lar edim” (Mavdudi, Age, 322-323).

U vafot etganida Horun ar-Rashidning o‘zi dafn marosimiga piyoda hamrohlik qildi, janoza namozini o‘qidi, uni o‘z oilasi qabristoniga ko‘mdi va bu uchun barcha motam qilishlari kerakligini aytdi.

XULOSALAR

Abu Yusufning qarashlari Abbosiylar boshqaruv tizimining o‘sha davri erishishi mumkin bo‘lgan eng yuqori darajada deb o‘ylagan narsalarni tasvirlaydi. Darhaqiqat, uning qarashlarini amaliyotga qanchalik darajada tatbiq etilganligi muhim emas. Uning maqsadi – Islom davlati tuzilishi uchun zarur bo‘lgan qoidalarni kiritish orqali yaxshiroq sharoitni vujudga keltirish edi.

Abu Yusufning kadrlar siyosati amaldorlar faoliyatida hanafiylik ta’limotinini taraqqiy etishiga xizmat qildi. Biroq, uning hanafiylik mazhabini rivojlantirishga qo‘shgan eng katta xizmati “Kitob al-xaroj” asarining yozilishidir. Nemis olimi Alfred fon Kremer aytganidek, “Abu Yusuf hanafiylikning eng faol tarafdori sifatida bu ta’limotni qabul qilmaganida, uning faoliyatida boshqa kontseptsiyani shakllantirish qiyin bo‘lardi”.

Bu jarayonlar Abbosiylar xalifaligida uning eng keng tarqalgan mazhabga aylanishiga olib keldi. Hatto, davlatning asosiy huquqiy asosi sifatida hukmron sulola vakillarini ham qo‘llab-quvvatladi. Abbosiylar xalifasi Horun ar-Rashid davrida hanafiylik mazhabining eng yirik nazariyotchisi Abu Yusufning xalifalik bosh qozisi bo‘lganida, viloyatlarda qozilikka nomzodlarni tanlashda hanafiylik mazhabi vakillarini afzal ko‘rib tanlagan.

Shu boisdan hanafiylik tez tarqaldi. Keyinchalik xalifalikdan ajralib chiqqan mintaqalarda ham bu mazhab rasmiy maqomga ega bo‘ldi. Bunga hanafiy mazhabi musulmon olamining turli mintaqalarida mustahkam o‘rnashganligi va bugungi kungacha uning tarafdorlari dunyo musulmonlarining ko‘pchiligini tashkil etishi yaqqol dalil bo‘ladi.

Ahli hadis ko‘pincha ra’y va qiyos tarafdorlarini yoqlamagan bo‘lsalar ham, ularning ko‘plari Abu Yusufga katta e’tibor qaratib, uni maqtaganlar.

Ibn Xallikonning ta’kidlashicha, Abu Yusuf qozil-quzzot bo‘lganidan keyin birinchi bo‘lib qozilar uchun maxsus kiyim, qora salla va taylasonni joriy qilgan. Hozirda ayrim mamlakatlarda, jumladan Yevropa mamlakatlarida sudyalar kiyadigan **Gown, Hood, Can** kabi uniformalar doktor Ahmad Shalabiyning fikricha, hijriy ikkinchi asr Abu Yusuf tomonidan belgilangan kiyimning biroz o‘zgartirilgan shaklidan boshqa narsa emas (Ahmad Shalabiy, 8-jild:199).

Abu Yusuf hijriy 182-yil (milodiy 798-yil) hayotdan ko‘z yumadi. Ibn an-Nadimning “al-Fixrist” asarida ta’kidlanishcha, uning Yusuf ismli o‘g‘li bo‘lib, otasi vafotidan keyin uning ishlarini davom ettirgan va hijriy

192 yil vafot etgan. Abu Yusuf ba'zi manbalarda 40 ta, ba'zilarida 36 ta kitob yozgan deyiladi (Ibn an-Nadim, 286).

Uning vaqt o'tishi bilan yo'qolgan qabri 1659-yil Safaviylar podshohi Sulaymonshoh tomonidan topilgan. Usmoniy sultoni Mehmed IV uning qabriga maqbara qurdirgan.

Imom Abu Yusuf nihoyatda oliy zakovat va yuksak iste'dod egasi sifatida Horunga juda yaqin va ishonarli kishi bo'lgan. U odatda huquqiy masalalarda Abu Yusuf bilan bamaslahat ish olib borgan.

U fiqh ilmida ustozi Abu Hanifaning izidan borib, avvalo, Qur'oni Karim va Sunnatga, keyin sahobalarning amallariga ergashdi. U ahli ra'yni ahli hadisdan ajratmadi. Tarixchilar ta'kidlaganidek, hanafiy mazhabining Abu Hanifadan keyingi eng buyuk faqihi Abu Yusufdir.

ADABIYOTLAR

1. Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. (2001). Китаб ал-Харадж. (Мусульманское Абу Йусуф Йакуб б. Ибрахим ал-Куфи. Китаб ал-Харадж (Мусульманское налогообложение) / Пер. с арабского и комментарии А. Э. Шмидта. Супракомментарии к переводу А. С. Боголюбова. Подготовка к изданию, вступит.статья и указатели А. А. Хисматулина. - Санкт Петербург. – С.12.
2. Abdulhakim Shar'iy Jo'zjoniy. (2002). Islom huquqshunosligi. (Hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari). – T.: "Toshkent islom universiteti". – 256 b.
3. Abu Zahra. (1981). Ebu Hanife. Konya. - S.140.
4. Ahmet Ozel. (2006). Hanefi Fikh Alimleri. – Istanbul: Turkiye Diyanet Vakfi Yayinlari. 2. Baski. – S. 81.
5. Aminov H., Primov S. (2017). Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. – Toshkent: "Movarounnahr". – B. 399.
6. Аль-Хатиб аль-Багдади. (2001). История Багдада. Т. 4. Бейрут: Дар аль-гарб аль-Ислами. – 299 с.
7. Bazzozi. (1981). Menaqibu Ebi Hanife, Beyrut: Darü'l-Kitabi'l-Arabi, 1981. – S. 394.
8. Doktor Ahmad Shalabiy. Mavsuatul-hazoratil-islomiya, 8 jild. – B. 199.
9. Kavsari, Muhammad Zohid. (1970). Fıqhu ahli'l-Iraq va hadisuhum. Bayrut: Maktabatu'l-matbuatu'l-Islami, 1970. 117 b.
10. Icli, Abu'l-Hasan Ahmad b. Abdulloh b. Solih al-Kufi. (1405/1985). Ma'rifatu's-siqat min rijali ahli'l-ilm va'l-hadis va mina'd-duafai va zikru mazohibihim ve ahbarihim. Madina: al-Maktabatu'ddor. 245 b.
11. Ibn Abdilberr. al-Intiqo' fi fidaili's-silasiti'laimmati'l-fuqaho. Bayrut. Daru'l-kutubu'lilmiyya.
12. Ibn an-Nadim. al-Fihrist. Dorul-ma'rifa. Bayrut. - B. 286.
13. Mahmud Matlub. (1972). Abu Yusuf hayatuhu va asaruhu va arauhul-fiqhiyya. Bag'dod.
14. Mehmed Avci. (2001). Imam Abu Yusuf'un Hayati ve Fikhi Go'rushleri. Marmara. 109 b.
15. Salim Ogut. Abu Yusuf ve Hanefiligi. DIA. C. x. –b. 263.
16. Razzoq, Habib. (1430/2009). Isharatu va ta'qibatu Muhammad b. Hasan ash-Shayboniy fi rivayati'l-Muvatta' va asaruha'lfıkhi va'l-usuli. Bayrut: Daru Ibn Hazm. 156 b.
17. Hatice Engin Ersoy. (2019). Ebu Yusuf'un fikih anlayişi. Istambul. 211 b.
18. Hendri H.A. (1983). The Rationalization of Abu Yusuf Economic Thought (An Analysis of the Islamic Public Finances) // Journal of Islamic bancing and finance. Volume 35, Issue 4, December 2018. – P. 42.Yûsuf Musa, Fıkh-ı İslâm Tarihi, Istanbul. Çev:Ahmet Meylani, s.232.
19. Joseph Schacht. (1982). An introduction to Islamic law. – Oxford University Press. – 304 p.
20. Надеждин А.В. (2020). Абу Йусуф как один из учеников Абу Ханифы в контексте становления ханафитской правовой школы. Вестник Российского университета кооперации. № 3(41). – С. 143-147.
21. Рахимова Ф. (2009). Баъзе мулоҳизот оиди мароми соҳаи ҳуқуқи давлат дори дар "Китоб ал-харож"-и Абе Йусуф. Вестник ТГУПБП №3 (39).
22. Прозоров С. М. Некоторые штрихи к портрету верховного судьи Багдада Абу Йусуфа (ум. в 798 г.) // ИВР РАН. Письменные памятники Востока. - СПб.: Наука, 2008. - № 1 (8). - С. 165-169.
23. Dr. Oğuz BAL. (2014). Islam Iktisadinin kilometer taslarindan Ebu Yusufun iktisodi dusuncesi // Turkish Journal of Islamic Economics, Vol. 1, No. 2, August. - P. 1-41.
24. Öznur ÖZDEMİR. (2018). Early Islamic Institutions: Administration and Taxation from the Caliphate to the Umayyads and Abbasids. Journal of Sakarya University Faculty of Theology (SAUIFD), Volume: XX, Issue: 37.
25. Sabahiddin Azmi. (1995). Abu Yusuf's contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosopy in economics. India. – 140 p.
26. Nasrulloh Ali Munif. (2019). Critical analysis of Abu Yusuf thought: The role of government in Islamic economic. Vol. 07 No. 01. – P. 14-24. http://ejournal.staim-tulungagung.ac.id/index.php/Eksyar.
27. Siddiqi M.N. Nature and Methodology of Islamic Political Economy // www.siddiqi.com.mns.
28. Dr. Oğuz BAL. (2014). One of the milestones of Islamic economics: Abu Yusuf and his economic thought. www.tujise.org. Vol. 1, No. 2.
29. Öznur Özdemir. Tax distruption as a groud force for the Abbasid revolution and a review for modern Islamic historiography. http://dx.doi.org/10.17335/sakaifd.354578

REFERENCES:

1. Abu Yusuf Yakub b. Ibraxim al-Kufi. (2001). Kitab al-Xaradj (Abu Yusuf Yakub b. Ibraxim al-Kufi. Kitab al-Xaradj (Musulmanskoe nalogooblojenie) / Per. s arabskogo i kommentarii A. E. Shmidta. Suprakommentarii k perevodu A. S. Bogolyubova.

Podgotovka k izdaniyu, vstupit.statьya i ukazateli A. A. Xismatulina. Sankt Peterburg. S.12.
2. Abdulhakim Shariy Jo‘zjoniy. (2002). Islom huquqshunosligi. (Hanafiy mazhabi va O‘rta Osiyo faqihlari). T. : Toshkent islom universiteti. 256 b.
3. Abu Zahra. (1981). Ebu Hanife. Konya. S.140.
4. Ahmet Ozel. (2006). Hanefi Fikh Alimleri. Istanbul : Turkiye Diyanet Vakfi Yayinlari. Baski. S. 81.
5. Aminov H., Primov S. (2017). Hanafiy fiqhi tarixi, manbalari va istilohlari. Toshkent : Movarounnahr. B. 399.
6. Al-Xatib al-Bagdadi. (2001). Istoriya Bagdada. T. 4. Beyrut : Dar al-garb al-Islami, 2001. 299 s.
7. Bazzozi. (1981). Menaqibu Ebi Hanife, Beyrut : Darül-Kitabil-Arabi. – S. 394.
8. Doktor Ahmad Shalabiy, Mavsuatul-hazoratil-islomiya, 8 jild. B. 199.
9. Kavsari, Muhammad Zohid (1970). Fıqhu ahlil-Iraq va hadisuhum. Bayrut: Maktabatul-matbuatul-Islami, 1970. 117 b.
10. Icli, Abul-Hasan Ahmad b. Abdulloh b. Solih al-Kufi (1405/1985). Marifatus-siqat min rijali ahlil-ilm val-hadis va minad-duafai va zikru mazohibihim ve ahbarihim. Madina: al-Maktabatuddor, 1405/1985. 245 b.
11. Ibn Abdilberr. al-Intiqo fi fidailis-silasitilaimmatil-fuqaho. Bayrut. Darul-kutubulilmiyya.
12. Ibn an-Nadim. al-Fihrist. Dorul-ma’rifa. Bayrut. B. 286.
13. Mahmud Matlub. (1972). Abu Yusuf hayatuhu va asaruhu va arauhul-fiqhiyya. Bagdod.
14. Mehmed Avci. (2001). Imam Abu Yusufun Hayati ve Fikhi Gorushleri. Marmara. 2001. 109 b.
15. Salim Ogut. Abu Yusuf ve Hanefiligi. DIA. C. x. B. 263.
16. Razzoq, Habib. (1430/2009). Isharatu va taqibatu Muhammad b. Hasan ash-Shayboniy fi rivayatil-Muvatta va asaruhalfıkhi val-usuli. Bayrut: Daru Ibn Hazm. 1430/2009. 156 b.
17. Hatice Engin Ersoy. (2019). Ebu Yusufun fikih anlayişi. Istambul. 2019. 211 b.
18. Hendri H.A. (1983). The Rationalization of Abu Yusuf Economic Thought (An Analysis of the Islamic Public Finances) // Journal of Islamic bancing and finance. Volume 35, Issue 4, December 2018. R. 42.Yûsuf Musa, Fıkh-ı İslâm Tarihi, îstanbul:1983, Çev:Ahmet Meylani, s.232.
19. Joseph Schacht. (1982). An introduction to Islamic law. Oxford University Press. 304 p.
20. Nadejdin A.VAF. (2020). Abu Yusuf kak odin iz uchenikov Abu Xanifi v kontekste stanovleniya xanafitskoy pravovoy shkoli. Vestnik Rossiyskogo universiteta kooperatsii. № 3(41). S. 143-147.
21. Raximova F. (2009). Ba’ze mulohizot oidi maromi sohai huquqi davlat dori dar “Kitob al-xaroj”-i Abe Yusuf. Vestnik TGUPBP №3 (39), 2009.
22. Prozorov S. M. (2008). Nekotorie shtrixi k portretu verxovnogo sudi Bagdada Abu Yusufa (um. v 798 g.) // IVR RAN. Pismennie pamyatniki Vostoka. SPb. : Nauka. № 1 (8). S. 165-169.
23. Dr. Oğuz BAL. (2014). Islam Iktisadinin kilometer taslarindan Ebu Yusufun iktisodi dusuncesi // Turkish Journal of Islamic Economics, Vol. 1, No. 2, August. P. 1-41.
24. Öznur ÖZDEMİR. (2018). Early Islamic Institutions: Administration and Taxation from the Caliphate to the Umayyads and Abbasids. Journal of Sakarya University Faculty of Theology (SAUIFD), Volume: XX, Issue: 37.
25. Sabahiddin Azmi. (1995). Abu Yusufs contribution to the theory of public finance. Dissertation submitted of the degree of master of philosopy in economics. India. 140 r.
26. Nasrulloh Ali Munif. (2019). Critical analysis of Abu Yusuf thought: The role of government in Islamic economic. Vol. 07 No. 01. P. 14-24. http://ejournal.staim-tulungagung.ac.id/index.php/Eksyar.
27. Siddiqi M.N. Nature and Methodology of Islamic Political Economy // www.siddiqi.com.mns.
28. Dr. Oğuz BAL. (2014). One of the milestones of Islamic economics: Abu Yusuf and his economic thought. www.tujise.org. Vol. 1, No. 2.
29. Öznur Özdemir. Tax distruption as a groud force for the Abbasid revolution and a review for modern Islamic historiography. http://dx.doi.org/10.17335/sakaifd.354578